



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR - SENTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oyilarida viloyat korxonalaridan 14 904,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 73,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 216,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 69,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Tabiiy qumlar




Neft




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- sentabr	2022- yil yanvar- sentabr	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	82,4	13,7	- 68,7
Neft, ming t.	20,2	15,3	- 4,9



Tabiiy gaz




Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- sentabr	2022- yil yanvar- sentabr	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1 067,6	422,0	- 645,6
Gaz kondensati, ming t.	116,1	89,0	- 27,1

Yanvar- sentabr oylari yirik korxonalar boʻyicha

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 003,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 108,2 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr


64,7 %

2022- yil yanvar-sentabr

73,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,8 % (21,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,1 % (3,0 %) va quyi texnologiyali – 46,5 % (40,2 %) ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 16,1 % (2021- yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 23,6 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,2 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,6 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi– 22,6 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 157,1 m.), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,2 %), ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Tabiiy qumlar




Gaz kondensati



Tabiiy gaz



Neft




Propan, Butan






Chaqiq tosh



* Yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo‘yicha

Yumshoq bug'doy uni

Aroq

Uzum vinosi

Paxta tolasi

Paxta chigiti

Kalava ip


2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 97,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 88,6 %) ni, 38,9 ming tonna kalava ip (130,6 %) ni, 39,3 ming tonna paxta tolasi (72,0 %) ni hamda 1 816,4 ming litr aroq mahsulotlari (109,9 %) ni, tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	109,6	97,1	- 12,5
Paxta tolasi, ming t.	51,7	39,3	- 12,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,0	3,5	1,5

Yanvar- sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 172,6 % ni tashkil etgan,

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi esa, 23,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 17,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,3 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,5 m. ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 455,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2022- yilning yanvar-sentabr oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 406,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,3 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 114,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 96,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 146,8 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 140,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 906,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,4 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %, fizik hajm indeksi 98,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 360,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,6 % ni, fizik hajm indeksi 96,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 371,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-sentabr oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,0 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 133,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 89,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,17 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,9 m. tashkil etgan.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 157,1 % ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 61,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 151,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 134,0 % ga oshib va ishlab chiqarish hajmi 24,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,2 m. ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 115,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 68,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,03 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan.

2022- yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 97,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 597,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,4 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,2 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 603,7	6 629,1	-2 974,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 306,7	2 366,0	59,6

yanvar - sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar - sentabr	2022- yil yanvar – sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	8 380,6	10 288,9	1 908,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	39 953,9	65 808,0	25 854,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 122,8 % ni hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 99,1 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 393,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-sentabr

61,8 %

2022- yil
yanvar-sentabr

61,0 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-sentabr

38,2 %



2022- yil
yanvar-sentabr

39,0 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 2,4 % (2021- yil yanvar–sentabr oylarida 2,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 25,5 % ni, Shahrisabz shahri 8,0 % ni, Yakkabog' va Koson tumanlarida 7,9 % ni, Kitob tumani 7,0 % ni hamda Shahrisadz tuman 6,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (110,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kasbi tumanida (128,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,5 % ni shuningdek, Shahrisabz shahar 8,0 % ni, Yakkabog' va Koson tumanlarida 7,9 % ni hamda Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shaharga to'g'ri kelib 13,7 % ni, Koson tumaniga 10,0 %, Kitob tumaniga 9,5 %, shuningdek, Yakkabog' tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

1 136,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

1 119,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr

1 324,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

2020- yil


97,0 %

2021- yil

112,7 %

2022- yil

113,7 %






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 34,3 % ni, shuningdek, Shahrisabz shahar 9,6 % ni, Koson tumaniga esa 6,8 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qashqadaryo viloyati shahar, tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G‘uzor tumaniga to‘g‘ri kelib, 18,1 % ni, shuningdek, Qarshi shahar 17,0 % ni, Nishon tumani esa 15,5 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

9 748,0 mlrd. so‘m

2021- yil

13 187,8 mlrd. so‘m

2022- yil

14 904,7 mlrd. so‘m



2020- yil


97,6 %

2021- yil

119,0 %

2022- yil

104,5 %




FHI, % da

mlrd. so‘m

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (14 450,4 ming so'm), G'uzor tumanida (12 618,6 ming so'm), Qarshi shahar (8 911,0 ming so'm), Dehqonobod tumanida (6 617,5 ming so'm), Kasbi tumanida (5 193,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4339,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming so'm

Qashqadaryo viloyati

2020- yil

2 954,7 ming so'm

2021- yil

3 922,5 ming so'm

2022- yil

4 339,2 ming so'm



2020- yil

95,8 %

2021- yil


116,8 %

2022- yil

102,3 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 924,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,3 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

2 992,8 mlrd. soʻm

2021- yil

3 253,3 mlrd. soʻm

2022- yil

3 924,3 mlrd. soʻm



2020- yil

30,7 %

2021- yil

24,7 %




2022- yil

26,3 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 987,9 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 3 025,4 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1 883,0 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 1 254,1 ming so'mni va Nishon tumanida – 1 064,8 ming so'mni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati




o'sish sur'ati

ming. so'm

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 5445 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 967 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,8 % i) Qarshi shahriga, 569 tasi (10,4 %) Kitob tumaniga, 467 tasi (8,6 %) Yakkabog' tumaniga, 377 tasi (6,9 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirillishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 96 ta loyiha bo'yicha 515,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 494 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 4,7 m. ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining pasayishi kuzatildi.